



LESSINGNING “EMILIYA GALOTTI” ASARI TARJIMASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Mamatova Anorxon Iminovna²

¹ Fargʻona davlat universiteti nemis tili oʻqituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812713>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021
Maʼqullandi: 15-Dekabr 2021
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

KALIT SOʻZLAR

tarjima, tasviriy ifoda, Lessing, assimilatsiya, alliteratsiya, adabiyot durdonalari

Kirish

Bugungi kunda jahon adabiyoti durdonalaridan keng bahramand boʻlib, ushbu javohir asarlarning oʻzbek tiliga tarjima etilishida jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan Oʻzbekistonning oʻzaro madaniy-maʼnaviy aloqalarining yuksakligidan dalolat beradi. Mustaqillik tufayli biz oʻz erkimiz bilan birgalikda soʻz sehri boʻlmish *adabiyot*da erkin ijod qilishga va xalqimizning maʼnaviy ildizlari, urf-odat va anʼanalarini, bir soʻz bilan aytganda oʻzbek xarakterini asarlarimiz orqali keng yoritib berishga ulkan qadam boʻldi. Bunday oʻzgarishlar bizning adabiyot sohasidagi yaratgan muhtasar tarixni milliy koʻrinishdan darak beruvchi asarlarimizning chet tillarida chop etilib,

ANNOTATSIYA

Maqolada Lessingning “Emiliya Galotti” asarining oʻzbek tiliga tarjimasi va uning oʻzbek tilidagi oʻziga xos jihatlari tasvirlangan. Asardan olingan parchalar taxlil qilingan.

dunyo tamaddunidan joy olishga sabab boʻldi.

Asosiy qism

Lessingning “Donishmand Natan” va “Emiliya Galotti” asarlari oʻzbek tiliga oʻgirilgan “Emiliya Galotti” mohir tarjimon Posho Ali Usmon tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Posho Ali Usmon – koʻp tilli tarjimon. U kishi olmon, rus, turk va ozarbayjon tillarida emin – erkin tarjima qilish iqtidoriga ega. Posho Ali Usmon Samarqanddagina emas, balki respublikamizda ham yetuk tarjimon sifatida tanilgan. U kishinig yuzdan ortiq tarjimalari: hikoya, maktublar, qissalar, novellalar, Gyotedan oʻgirgan “Oʻrmon shohi” va “Qoʻshiqchi” balladalarini viloyat hamda respublika gazetalari va jurnallarida



e'lon qilingan. Posho Ali Usmonning talabalarimizga jahon adabiyoti fanidan o'quv qo'llanmasi sifatida xizmat qiladigan bir talay tarjimalari, shu jumladan, 2005 yilda N.A.Kunning "Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari", 2007 yilda esa Gyotening "Faust" tragediyasining birinchi qismi nashr etildi.

"Emiliya Galotti" bag'oyat to'laqonli bo'lib, tarjimonning so'z tanlash san'ati uning o'zbek tilini naqadar chuqur bilishidan dalolat beradi. Tarjima to'mtoqlik va g'alizlikdan xoli, muallif uslubiga putur yetmagan, so'zma- so'zlikka yo'l qo'yilmagan. Har to'kida bir ayb deganlaridek, tarjimada ayrim juz'iy kamchiliklar bor, biroq ular tarjima matniga ko'lanka tashlay olmaydi.

Olmon milliy adabiyotining asoschisi Lessingning hayoti va faoliyati oily maktab dasturidan munosib o'rin egallagan. Uning nomi gumanitar fakultetlarning talabalariga aziz va mo'tabardir.

"Emiliya Galotti" tragediyasi Lessingning eng mashhur va yirik dramatik asarlaridan bo'lib, besh parda, 43 ko'rinishdan iborat. Rimda patriitsiyalar hukmronligi davrida Appiy Klavdiy degan kimsa Plebey Lyutseyning qizi Virginiyaga ko'z olaytiradi. Qizini zolimga ravo ko'rmagan ota unga ko'chaning o'rtasida hanjar uradi. Virginiyaning o'limidan g'azablangan plebeylar patriitsiyalar hokimiyatini ag'darib tashlaydilar. Mazkur syujetni qayta ishlab, Lessing original

asar yaratadi. Voqea Italiyaning afsonaviy Guastalla knyazligida yuz beradi. XVIII asr olmon knyazligining xulq-atvori horijiy libosga burkanganini tragediyaning

mazmunidan darhol bilsa bo'ladi. Guastalla shahzodasi o'taketgan shahvatparast va mustabid zotlardan. U polkovnik Odoardo Galottining qizi – Emiliya Galottiga tuzoq qo'yadi. Lekin Emiliya olijanob va hech kimga qaram bo'lmagan graf Appianiga turmushga chiqishi kerak. Emiliyani qo'lga kritish maqsadida shahzoda Gettaro Gonzaga o'zining maslahatchisi bo'lgan Marinellining vasvasasiga uchib, qabih jinoyatga yo'l qo'yadi. Graf o'z qaylig'I bilan nikohdan o'tish uchun yo'lga chiqqanda, ularga Marinelli tomonidan yollangan qotillar hujum qiladi, graf Appiani o'ldiriladi, Emiliya esa shahzodaning shahar tashqarisidagi qasrida shahzoda ixtiyoriga topshiriladi. Voqeadan xabardor bo'lgan Odoardo qasrga yetib keladi.

Shahzoda va Marinelli Odoardoga qizi bilan uchrashishga monelik qilishadi, ammo tajribali, sobiq polkovnik ustamonlik bilan qizi Emiliya bilan uchrashishga muvaffaq bo'ladi.

Odoardo Emiliya bilan suhbatini chog'ida qiziga: "Tergov ishlarini olib borish bahonasi... Eh, qanday lo'ttiboqlik! Seni bizning qo'limizdan tortib olib, Grimaldining uyiga olib bormoqchi", - deydi. "Grimaldining uyini men bilaman. U – ayshu – ishrat uyi. Onamning ko'z oldida u yerda bir soat bo'lganimda qalbimda shunday bir tug'yon paydo bo'lgandiki, o'zimga kelishim uchun bir hafta eng jiddiy diniy toat – ibodatga berilganman. Diniy! Tag'in qanday dinning deng! Bunda yovuzlikdan xalos bo'lish uchun minglab kishilar o'zlarini suvga tashlagan-u, muqaddas avliyolarga aylanib ketishgan!", - deya yozg'iradi Emiliya. Emiliyaning so'zlaridan ta'sirlangan Odoardo qizining ko'ksiga hanjar qadaydi. U bu bilan qizini g'alamis shahzodaning qo'lga tushishdan



asraydi. Shunda Emiliya: “Bo’ron barglaridan judo qilmay turib, hazon bo’ldi gul. Ruxsat eting, otajon, tabarruk qo’lingizni o’pay”, - derkan otasining jasoratidan mamnun bo’ladi, chunki u suyukli qaylig’idan judo bo’lgach, shahvatparast shahzodaning changaliga tushishni istamaydi. Otasining qizining umriga zomin bo’lishi o’sha onda ayni muddao edi.

G.E.Lessingning “Emiliya Galotti” tragediyasi Posho Ali Usmon tomonidan ona tilimizga o’girilganligi aytib o’tilgan edi.

Quyida mazkur tragediyaning o’zbek tiliga tarjimasidagi lisoniy xususiyatlarga to’xtalib o’tamiz.

Asarda juda ko’plab sifatlashlar va o’xshatishlar qo’llanilgan bo’lib, tarjimon buni mohirona tarjima qilgan.

Alles, was die Kunst aus den großen, hervorragenden, stieren, starren Medusenaugen der Gräfin...

Grafinyaning ilonsifat alvastinikidek bo’rtib chiqqan, harakatsiz va toshday qotib qolgan ko’zlaridan san’atingiz salohiyatiga mos keladigan ezgu narsani vujudga keltirishda halol xizmat qildingiz, halol, dedimmi men?

Arxaizmlar eskirgan so’zlar bo’lib, asarda mazkur uslubiy vosita ko’p o’rinlarda qo’llangan: *Kammerdiener* – nemis tilida eskirgan so’z hisoblanadi, lekin tarjimon bu so’zni „*xizmatchi*“ deb tarjima qilgan. Mazkur so’z tilimizda arxaizm hisoblanmaydi.

Asarni yozishda yozuvchi o’z uslubida takror so’zlardan ham foydalangan. Masalan:

Der Prinz: *Ich verstehe. Nun gut, nun gut. Sein Tod war Zufall, bloßer Zufall.* Shahzoda. *Tushunaman. Mayli, mayli. Uning o’limi tamoman tasodifiy edi, tamoman tasodifiy.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nisbet H. B. Gotthold Ephraim Lessing: His Life, Works, and Thought. – OUP Oxford, 2013.
2. Müller K. D. Das Erbe der Komödie im bürgerlichen Trauerspiel. Lessings’ Emilia Galotti’und die commedia dell’arte //Deutsche Vierteljahrsschrift für Literaturwissenschaft und Geistesgeschichte. – 1972. – T. 46. – №. 1. – C. 28.
3. Lessing G. E. Emilia Galotti. – De Gruyter, 2019.
4. Kaufmann F. W. Zu Lessings Emilia Galotti //Monatshefte für deutschen Unterricht. – 1935. – C. 50-53.